

O'zbek Shekspirshunosligining asosiy muammolari.

Namozova Saodat Baxtiyorovna

Qarshi davlat universiteti

“Amaliy ingliz tili” kafedrası o'qituvchisi

baxtiyorovnaaodat@gmail.com

+998904409552

Abstract: In this article, the translation of Shakespeare's works from the original had a direct impact on the formation of an approach to the spiritual heritage of the creator based on new criteria. In this process, the role of the talented poet and translator Jamal Kamal should be noted. With a proper understanding of the complex aspects of translation, his approach to the text, and his skill in expressing the spirit of the playwright's era should be recognized as a product of great poetic creativity.

Key words: translation, drama, analysis, comments, controversy, originality

Аннотация: В данной статье перевод произведений Шекспира с оригинала оказал непосредственное влияние на формирование подхода к духовному наследию творца, основанного на новых критериях. В этом процессе следует отметить роль талантливого поэта и переводчика Джамала Камала. При правильном понимании сложных моментов перевода, его подход к тексту, умение передать дух эпохи драматурга следует признать продуктом большого поэтического творчества.

Ключевые слова: перевод, драматургия, анализ, комментарии, полемика, оригинальность.

O'tmish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, Shekspirshunoslik jahon adabiy tanqidi va adabiyotshunosligida juda muhim taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Bu jarayonda ijodkorlar, adabiyotshunoslar, faylasuflar, huquqshunoslar, xullas, jamiyatning har bir qatlami qatnashdi, deb qayd etsak mubolog'a bo'lmas. Shekspirshunoslikning eng asosiy tamoyili, adib asarlarining o'ziga tegishli ekanligini isbotlanishi, uning yetuk ijodkor sifatida e'tirof etilishi shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

G'arb va Yevropada Shekspirshunosligi o'ta mulohazalar va tortishuvlarga boy tarixga ega bo'lib, bunday murakkab va ziddiyatli, keskin qarashlarni aks ettirishning o'ziga xos tarixiy sababalari ham mavjuddir. Yillar davomida Shekspir asarlarining boshqa muallifga tegishli ekanligini isbotlashga intiluvchilarning qarashlari to'liq inkor etildi. Shekspir haqidagi mulohazalarning asosida, 1616 yillarda Shekspirning sog'ligi

yomonlashadi, kundan kunga ahvoli og'irlashganligini sezgan adib vasiyatnoma yozdirganligi, ammo bu vasiyatnomada yaratgan asarlari haqida bir fikr qayd etilmaganligini ta'kidlab kelishadi, hattoki do'stlariga qoldiradigan uzugi haqida ham fikr boru, ammo asarlari haqidagi mulohazaning mavjud emasligi, oradan chamasi bir yarim asrdan keyin, Shekspir asarlarining muallifi "stretforlik Shekspir emas" – degan qarashlarni ilgari surishga zamin bo'ldi. Yillar davomidagi bahslar shundan dalolat beradiki, adibning falsafiy qarashlariga, uning asarlariga shubha bilan munosabat bildiruvchilar shakllanib ulgurgan edi. Ammo haqiqat barchadan ustun ekanligini yana bir isbotladiki, bu asarlarning muallifi aynan, stretfordlik Shekspir degan qat'iy munosabat bildirildi. Shu o'rinda ijodkor Nazar Eshonqulning mulohazalariga to'xtalishni lozim topdik: "Bu xil qarash tarafdorlari hali ham bor. Ularning birdan-bir asosi o'sha vasiyatnoma.

Lev Tolstoy qarashlariga vaqti kelib, o'zbek shekspirshunosligida ham nazariy asoslangan mulohazalar yuzaga chiqishi mumkin. Shekspir ijodi haqidagi qarashlarini ilgari surgan Lev Tolstoy adib asarlari haqidagi qarashlarini bir necha marotaba o'ylab-o'ylab shunday xulosaga kelganligi haqida yozadi. Adibning eng xarakterli asarlarida ham o'ziga xos ma'naviy oziq mavjud emasligini, uning eng yetuk asarlarini bir necha tillardagi variantilari ham fikrini o'zgartira olmaganligini qayd etib, Yevropada hukum surib kelgan Shekspir asarlari haqidagi qarashlarga butunlay zid ekanligini o'zi ham qayd etgan. Lev Tolstoy qarashlariga diqqat qilaylik: "Shekspirni birinchi marta o'qib chiqqanimda juda qattiq tajjubda qolgan edim. Men uni o'qib juda katta estetik zavq olaman, deb o'ylagandim. Ammo uning eng yaxshi deb hisoblanadigan asarlarini – "Qirol Lir", "Romeo va Julyetta", "Hamlet", "Makbet"larni birin-ketin o'qib chiqib, zavq olish bir yoqda tursin, qutilib bo'lmaydigan bir ijrg'anish his qildim; o'qib chiqquncha siqilib ketdim va hang-mang bo'lib qoldim: butun ma'rifatli dunyo benuqson, mukammal deb hisoblasa-yu, men bu asarlarni to'g'ridan-to'g'ri bemaza va arzimas deb o'tirsam?"¹

Yuqorida qayd qilganimizdek, jahon adabiyotshunosligi va adabiy-tananqidchiligida Shekspir ijodi haqidagi qarashlarni Aleksandr Abramovich

¹ Толистой Л.Н. Шекспир ва драма тўғрисида. Танкидий очерк. Қаранг: Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. О.Шарафиддинов таржималари. – Тошкент, Маънавият, 2010. 137-бет.

Anikstgina bayon etishga intilgan: “Ko‘plab nufuzli san’at ixlosmandalarining fikricha, Shekspirning dramatik asarlari inson dahosining o‘ylangan ijodlaridan biri, buyuk falsafiy fojiani talqin etgan. U har bir insonni hayajonga solib, hayotning o‘tkinchiligini, ya’ni hayot va o‘lim muammosini asos qilib oldi. Iste’dodli mutafakkir Shekspir o‘z asarlarida o‘zining ulkan qiyofasini namoyon etgan”²ligini ta’kidlaydi va asarlaridan olingan matn orqali isbotlashga intilgan. Nima uchundir Lev Tolstoy qarashlariga zid tushunchalar bayon etilsa-da, rus adabiy-tanqidchiligi bu haqidagi qarashlarga munosabat bildirmaydi.

A.Anikst Shekspir ijodining Nemis ijodkori F.Shlegel Uilyam Shekspir haqidagi juda muhim qarashlarini bayon egan. Hatto uning lirikasini “she’riyatning cho‘qqisi” deb hisoblasa, Shekspirning dramatik asarlari haqida so‘z yuritganda “insonning asl buyukligi va ulug‘vorligini, fojeasini ham tarannum etuvchi asarlar” sifatida e’tirof etgan. Agarda jahon adabiy tanqidchiligi jihatdan yondoshilsa ham, rus adabiyotshunoslarini qarashlarini nazarda tutsak ham turfa xillik yetakchilik qilganligini guvohi bo‘lamiz. Bu qarashlarning maydonga kelishida, Shekspir asarlarining ba’zan mohiyatini teran anglash hissi yetakchilik qilsa, ba’zan bundan uzoqlashish holati ham kuzatiladi. Ammo A.Anikstning qarashlari, tahliliy yondoshuvlari o‘ziga xos edi: “Shekspir daramalarida o‘tkir axloqiy muammolar asos qilib olingan. Fojia holatlari, ayniqsa, uning qahramonlarining fikrlari va kechinmalari o‘quvchilar turli qirralarini, poetik tasvir xususiyatlarini tahlil qilish davomida, uning yetuk dramaturg ekanligiga ishonch hosil qiladi. A.Anikstning mulohazalarida matn asosidagi yondoshuv mavjudligingi kuzatamiz, ammo Lev Tolstoy ham shu yo‘ldan borgan va bir necha matnlar bilan tanishagan. Tarixiy davrlar oqimidagi bunday qarashlarga munosabat bildirilishi tabiiy hol, ammo to‘rt asrdan ortiq yillar davomida shaklangan qarashlarga, ya’ni jahon adabiyotshunosligidagi qarashlargagina asoslanib qolmasdan, bugungi kunda o‘zbek adabiyotshunosligi, asliyatdagi tarjimalar asosida ham keyingi davrda Shekspir ijodiga tahliliy yondoshuv muammosi mavjudligicha qolayotganligini ta’kidlash lozim. Shuning uchun o‘zbek shekspirshunosligi oldidagi muammolarga nazar tashlar ekanmiz, hali bajarilishi lozim bo‘lgan bir qator ilmiy mulohazalar asosli tarzda qayta ishlanishini talab etadi. Shekspir asarlarining badiiyatini eng asosiysi asl mandan tarjima etish jarayoniga qat’iy e’tibor berish lozim.

² Аникст А. Трагедия Шекспира. “Гамлет”. Лит.комментарий. –Москва, Просвещение,1986.стр.5

Bu jarayonni istedodli shoir va tarjimon Jamol Kamol boshlab berdi, ammo bu tarjimalarga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlari hali barmoq bilan sanarlidir. Bu o'rinlarda adibning tarjimonlik mahoratini o'rganish va bungacha bo'lgan tarjimalarning qiyosiy tahlil qilib, asliyatdan qilingan va ikkinchi tildan olingan tarjimalarning ijodiy farqini ham tahlilga tortish davri keldi. Shu o'rinda adabiyotshunos I.Haqqulning quyidagi fikrlarini keltirishni lozim topdik: "Tarjimon asliyatdan o'girish ishiga kirishib ketib, adibning o'n ikkita eng yetuk asarini o'zbekchalashtirdi. Tarjimada asliyatdagi ko'ngil ohangi, ruhiy manzara, ma'no tovlanishlari o'zining yorqin ifodasini topmasa, kitobxon uni qabul qilmaydi. Bizningcha, Jamol Kamol ulug' Shekspir qahramonlarini o'zbekchada nuqsonsiz gapirtira olgan".³ Jamol Kamol tarjimasidagi asosiy talqinlar ijodkorning "men"ini anglashga qaratilgan. Bu tarjimaning yutuqlarini, kamchiliklarini o'rganish va tahlil qilish keyingi shekspirshunoslikning maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shekspir Uyg'onish davri adabiyotining buyuk namoyandasi sifatida e'tirof etilib keldi. U yaratgan asarlarning asosiy markazida – Inson taqdiri muammosi turadi. "Qirol Lir" tragediyasida qirolning ham shoh, ham inson sifatidagi sifatidagi fojeasini ijtimoiy muhit manzaralari tasviri orqali beradi. "Hamlet" tragediyasida Elsinora qasrida bo'lib o'tgan xiyonat, xunrezliklarni dramaturg bor haqiqatlari bilan yoritib berishga harakat qilgan. Bu qabihliklar buyuk fazilatlar egasi Hamletning qalbini jarohatlaydi. Uning romantik ruhdagi "Tirik qolmoq yo o'lmoq shudir masala..." deb boshlanuvchi monologi qahramonning hayot va mamot haqidagi qarashlarini ifodalaydi. "Otello" tragediyasining qahramoni ham xiyonat, tuhmatlar iskanjasida qolib istirob chekadi. Bunday qarashlarning keltirshdan maqsad, uning asarlaridagi qahramonlarda dard-alam, his etish va angalash kabi tushunchalar mujassamlashgan. Ana shunday xarakter qirralarini o'rganish va tahlil etish, asliyatdagi tarjimalar asosida o'rganishni talab etmoqda.

Xullas, XXI asr ikkinchi yarmi o'zbek shekspirshunosligi oldidagi vazifalarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

³ Хаққул И. Шекспир машъали. Қаранг: Шекспир В. Сайланма. Уч жилдлик. Биринчи жилд. Инглиз тилидан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент, Фан, 2007. 35-бет.

Shunday vazifalarni bajarish davomida Shekspirning xronikalari, dramalari, tragediyalari, sonetlari va boshqa janrdagi asarlari haqidagi nazazariy qarashlarni yuzaga chiqarish asosida jahon dramaturgiyasining taraqqiyotidagi ijodiy o'rnini asoslash mumkin. O'zbek shekspirshunosligining oldidagi mummo va vazifalar asosida jahon adabiyotining yetuk vakili U.Shekspirning asarlarida ilgari surilgan mohiyatni anglashga, o'zbek shekspirshunosligining taraqqiyoti asosida yondoshish imkoni kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Эшонкул Н. Мендан “мен”гача. Адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Тошкент, Akademnashr, 2014. 316-бет.
2. Толистой Л.Н. Шекспир ва драма тўғрисида. Танқидий очерк. Қаранг: Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. О.Шарафиддинов таржималари. – Тошкент, Маънавият, 2010. 137-бет.
3. Толистой Л.Н. Шекспир ва драма тўғрисида. Танқидий очерк. Қаранг: Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. О.Шарафиддинов таржималари. – Тошкент, Маънавият, 2010. 159-бет.
4. Аникст А. Трагедия Шекспира. “Гамлет”. Лит.комментарий. –Москва, Просвещение,1986.стр.5
5. Рафиали Ҳ. Шекспир // Маориф ва ўқитғучи. 1928. 4-бет.
6. Жўракулов У. “...Телбага йўқдур қалам” // Шарқ юлдузи, 2010. 4-сон, 49-бет.
7. Ҳаққул И. Шекспир машъали. Қаранг: Шекспир В. Сайланма. Уч жилдлик. Биринчи жилд. Инглиз тилидан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент, Фан, 2007. 35-бет.